



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI VA JAMOATCHILIK NAZORATI SHAKLLARI VA USULLARINI RIVOJLANTIRISH

Shamuratova Dilnoz Muratbay qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10002504>

ARTICLE INFO

Received: 06th Oktober 2023

Accepted: 13th Oktober 2023

Online: 14th Oktober 2023

KEY WORDS

Jamoatchilik nazorati, davlat boshqaruv organlari, ombudsman, jamoatchilik monitoringi, demokratik institutlar.

ABSTRACT

Maqolada Ózbekiston Respublikasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayonida kuzatilayotgan ayrim muammolar, ularning kelib chiqish sabablari órganildi va shu masalaga doir takliflar kórsatildi. Bu sohada davlat boshqaruv organlari roli va ularning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi vazifalari muhokama qilindi. Shu bilan birga jamoatchilik nazorati tógrisidagi qonun hujjatlarida jamoatchilik nazorati kafolatlarini aniq belgilash masalalariga tóxtalib ótili.

Bizning mamlakatimizda jamoatchilik nazorati tizimini shakllantirishda ma'lum darajadagi yutuqlar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham mavjudligini ta'kidlash zarur. Ularning ichida asosiysi - jamoatchilik nazoratining yuqori professional darajasini táminlash demakdir. Odatda, bir tomondan fuqarolik mavqesiga ega, lekin bu ishlarda, masalan, davlat xizmatlari ishlarida yetarli kompetentsiyaga ega bo'lmagan jamoatchilar, ikkinchi tomondan - bilim va iste'dodli, lekin davlat organlari nazorati tajribasiga ega bo'lmagan mutaxassislar harakat qiladi[5]. Binobarin fuqarolik tuzilmalarning boshqaruv faoliyati monitoringini o'tkazishda tóliq ishtirok etishni xohlovchi fidoyilarini yetarli darajada o'qitish masalasi paydo bo'ladi. Bu masalada Rossiya tajribasi e'tiborga loyiq. Jamoatchilik monitoringini rivojlantirishga yordam berishning muhim yo'nalishi Rossiyada fuqarolik ta'lim tizimini rivojlantirish bo'lib, unga fuqarolik tashkilotlar fidoyilarining ekspertlik kompetentsiyasini oshirishga yordam berish, shu jumladan, davlat boshqaruv sohasidagi mutaxassislar va ekspertlarda fuqarolik tuygularini singdirish demakdir. Fuqarolik ta'limning Maqsadli federal dasturini tuzish tógrisida taklifda RF Prezidenti yonidagi Kengash tomonidan berilgan bo'lib, 2005-yil 20-iyulda Kengash bilan uchrashuvda qo'llab -quvvatlandi. So'ng bu g'oya Ma'muriy islohot Dasturi va Ma'muriy islohot Kontsepsiyasi kabi, fuqarolik ta'lim Kontsepsiyasiga aylantirildi. Ayni ushbu Kontsepsiya doirasida amaldorlar fuqarolik tuzilmalar ishlari haqida bilimlarga, fuqarolik fidoyilar bo'lsa - ma'muriy islohotlarning kelajagi haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Yana bitta muammo - hokimiyat tuzilmalari rahbarlarining ayrim jamoatchilik monitoring shakllarini amalga oshirishga vijdonli munosabati demakdir, masalan, vazirliklar



bilan vedomstvolar xodimlaridan intervyu olish. Hammasidan oldin, yuqorida bayon etilganlardan kórinib turibdiki, u yoki bu hokimiyat tuzilmasi jamoatchilik nazorat yoki monitoringni tashkil etish yoki rivojlantirish bilan o'zi shug'ullanadi, deb hisoblash katta xatolik bo'lardi. Sababi bu holatda bu jamoatchilik monitoring emas, u qandaydir bir «hokimiyat yonidagi» tashkilot yoki tizim bo'lgan bo'lardi. Binobarin, bizning fikrimizcha, jamoatchilik monitoring tizimini rivojlantirishga yordamlaish haqida so'z yuritgan tógriroq bo'ladi.

Tegishli boshliqlar monitoring uchun «yopiq» bo'lgan holatda jamoatchilik nazorat qólide hokimiyat faoliyatining tashqi ko'rinishlargina bo'ladi, bu muammoning umumiy tashhisini belgilashga yordam beradi, biroq ijro hokimiyati ishlarining ayrim muhim tomonlarini tushinishni qiyinlashtiradi.

Hokimiyat tuzilmalarining har qanday harakatlarining jamoatchilik monitoringini yuritish uchun hammasidan oldin manfaatdor fuqarolarning davlat ma'lumotlardan foydalanishini ta'minlash zarur. Binobarin 2014-yili 05-mayda qabul qilingan «Davlat organlari faoliyatining ochiqligi haqida»gi Qonun katta ahamiyatga ega bo'ldi[4].

Jamoatchilik tashkilotlar bilan fuqarolar huquqlarini himoya qilishda hamkorlikning ijobiy tajribasiga ega bo'lgan davlat tuzilmasi sifatidagi Ombudsman (inson huquqlari bo'yicha Vakil) institutiga murojat etish ham muhim bo'ldi.

Muammolar safiga jamoatchilik nazorat organlarining davlat hokimiyati organlaridan mustaqilligini ta'minlash, shu jumladan, jamoatchilik nazoratning shartliligi masalalarini ham kiritish mumkin. Huquqiy bazaning takomillashtirilmaganligi ma'muriy organlarga ijtimoiy ahamiyatga ega ko'plab masalalarni yechishda jamoatchilik nazoratdan qochishga yordam beradi.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan jamoatchilik nazorat organlari bildirgan ogohlantirishlar va tavsiyalarni hisobga olish haqidagi masala ham juda keskin. Davlat hokimiyati organlari faoliyatiga shartli ravishda jamoatchilik tomonidan baho berishdi, davlat hokimiyati organlari sórovlari bo'yicha o'tkaziladigan ijtimoiy so'rovlar natijalarini shartli turda e'lon qilishni amaliyotga joriy etish zarur. Davlat xodimlarining jamoatchilik nazorat o'tkazishga to'sqinlik qilgani va jamoatchilik nazorat haqidagi qonun hujjatlarini boshqacha ravishda buzgani uchun yolg'iz javobgarlik tizimini joriy etish lozim[2].

Jamoatchilik nazoratni amalga oshirishda davlat yordam ko'rsatish mexanizmlarini ham ishlab chiqish zarur; davlat organlari faoliyati tógrisidagi rasmiy va alternativ hisobotlarni shartli turda birgalikda muhokama qilish amaliyotini shakllantirish haqidagi tavsiyalar ma'qullashga loyiq.

Jamoatchilik nazorat haqidagi qonun hujjatlarida jamoatchilik nazoratni amalga oshirish kafolatlarini belgilab qo'yish zarur deb o'ylaymiz. Bu, ayniqsa, jamoatchilik nazoratni amalga oshirishda ishtirokchi jamoatchilik vakillarining huquq va burchlariga aloqador. Jamoatchilik nazoratga ishtirokchi jamoatchilik vakillari quyidagi huquqlarga ega:

- a) jamoatchilik nazorat obektiga aloqador zarur ma'lumotlarni, hujjatlarni olish;
- b) jamoatchilik nazorat obektiga aloqador o'z fikrini holi bildirish;
- v) normativ -huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan tavsiyalar berish.

Jamoatchilik nazoratining turli tuzilmalari orasidagi o'zaro harakat hali yetarli emas, bu esa ulardagi resurslarning (ma'lumotnoma, tashkil etish, kadrlar) yetarli darajada samarador



qóllanilishiga olib keladi. Turli tarmoqlarda va turli hududlarda jamoatchilik nazorat o'tkazishning umumiy printsiplari bilan standartlarini ishlab chiqish, yagona axborot va metodik bazani shakllantirish zarurati kuchaymoqda.

Demokratik institutlar yordamida shakllangan davlat hokimiyati apparatining barqaror ish yuritish uchun jamiyatda davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan mustaqil nazorat yuritishning zamonaviy va samarador instrumentlari bo'lishi zarur. Mana shuning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 16-mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (32, 78, 93, 98, 103, 117-moddalariga) o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni hisoblanadi[1]. Respublika Konstitutsiyasining 32-moddasiga kirgizilgan o'zgarishlarga yarasha, fuqarolarning davlat va jamoatchilik ishlarni boshqarishda ishtirok etishi «ózin o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik ravishda tashkil etish, shu jumladan, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va takomillashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi»[3].

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, samarador jamoatchilik nazorati quyidagi masalalarni hal etishga yordam beradi: hokimiyatlarning bo'linishi, huquq ustuvorligi, xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlarining ustuvorligi printsiplarini amalga oshirish; davlat hokimiyati organlarining ishlarini optimallashtirish; byudjet mablag'larini optimallashtirish; davlat xodimlarining jamoatchilik manfaatlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatining samaradorligi uchun javobgarligini kuchaytirish; xalqning fuqarolik fidoyiligini, siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirishlik; jamoatchilikning hokimiyatga ishonchini tiklash; fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik obrósini ko'tarish.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023й.,03/23/837/0241-сон)
2. Ўзбекистон Республикасининг «Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида»ги Қонуни 2-сентябрь 1993 йил //(Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 9сон, 320-модда;
3. Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Қонуни (22 апрель2013 йил янги таҳрири) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 17-сон, 219-модда;
4. Ўзбекистон Республикаси “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги Қонуни// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 19-сон, 209-модда;
5. Ўзбекистон Республикаси “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонуни// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.04.2018 й., 03/18/474/1062-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон)